
Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishning ustivor yo'nalishlari

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmoqda. Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyul kungi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-sonli Farmoni imzolandi. Farmonga ko'ra ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Davlat hokimiyati organlari va yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Raqamli texnologiyalar imkoniyatidan keng foydalangan holda transport vositalariga davlat raqam belgilarini berish, notariat va boshqa davlat xizmatlarini ko'rsatish, yer uchastkalarini ajratish, yo'l harakati qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish kabi ko'plab sohalarda korrupsiya va suiiste'molchiliklarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar joriy etilmoqda. Shu bilan birga, ko'rilayotgan tizimli choralarga qaramasdan, byudjet mablag'laridan foydalanish, davlat xaridlari, litsenziya va ruxsatnomalarni olish, bank kreditlarini ajratish, ishga qabul qilish kabi yo'nalishlarda korrupsiya holatlari saqlanib qolmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish shakllantirish maqsadida: Mamlakat rivojlanishining bugungi bosqichida korrupsiya O'zbekiston davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etilgan. Korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustivor vazifasi etib belgilanganligi bejiz emas albatda. Keng jamoatchilikning fikri va takliflarini inobatga olib, davlat boshqaruvini korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish maqsadida: a) Agentlik tomonidan «Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reestri» yuritilishi ta'minlandi; b) Reestrga kiritilgan shaxslarga quyidagilar taqiqlanishi belgilangan: davlat xizmatiga kirish va davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi; saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodlarining ko'rsatilishi; davlat aktivlarini xususiylashtirish bilan bog'liq tender va tanlov savdolarida ishtirok etish; davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar hamda davlat ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritish. Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalarning aniq ro'yxatini belgilandi. Jumladan korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralari uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasigacha keskin kuchaytirish; daromadlar va mol-mulkni deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik o'rnatish; korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazoni o'tashda yengillashtiruvchi normalar qo'llanilishiga cheklovlar belgilash kabi choralarni tashkil etadi.

Umidjon Ergashev,
Rishton tumanlararo iqtisodiy sudi raisi

2022-05-20 11:38:48